


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent davlat agrar universiteti
O'quv ishlari bo'yicha prorektori, professor
 S.G' Boboyev



2025 yil “ ”
Dovriy xatga olindi: № BD- 60810100 - 1.20
2025 yil “ ”

**CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

Ta'lim sohasi: 810000 - Qishloq xo'jaligi

Ta'lim mutaxassisligi: 60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish

TOSHKENT – 2025

Fan/modul kodi ChMYT1405		O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalari	60		90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanini o'qitishdan maqsad - talabalarga chorvachilik mahsulotlarini (sut, go'sht, jun, teri va boshqa mahsulotlar) yetishtirishning zamonaviy texnologiyalari, chorva mollarining biologik va fiziologik xususiyatlari, oziqlantirish, saqlash va parvarishlash tizimlari, naslchilik va seleksiya asoslari, mahsuldorlikni oshirish yo'llari hamda chorvachilikda ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fan doirasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none">• Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rgatish;• Chorva mollarining biologik, anatomik va fiziologik xususiyatlarini tahlil qilish;• Chorva mollarini saqlash, parvarishlash va oziqlantirish texnologiyalarini o'zlashtirish;• Yem-xashak bazasini shakllantirish va ratsion tuzish tamoyillarini o'rgatish;• Sut, go'sht, jun va boshqa chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalarini tushuntirish;• Chorva mollarining mahsuldorligini hisoblash va baholash usullarini o'rgatish;• Naslchilik va seleksiya ishlarini tashkil etish asoslarini o'zlashtirish;• Zoogigiyena va veterinariya-sanitariya talablarini amalga qo'llashni o'rgatish;• Zamonaviy intensiv va innovatsion chorvachilik texnologiyalarini o'rganish;• Chorvachilik mahsulotlari sifatini baholash va standartlash asoslarini tushuntirish;• Ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat xavfsizligi va ekologik talablarni ta'minlash;• Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini o'rgatish. <p>II. Asosiy nazariy qism</p> <p>2.1. Ma'ruza mashg'ulotlari.</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu . Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish texnologiyasi faniga kirish</p> <p>Ushbu mavzuda fanning predmeti, maqsadi va vazifalari, chorvachilik mahsulotlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, fan rivojlanish bosqichlari hamda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi.</p>				

2-mavzu. Chorvachilik tarmoqlarining zootexnologik xususiyatlari va tasnifi
Chorvachilikning asosiy tarmoqlari (sut, go'sht, jun va boshqalar), ularning ishlab chiqarish yo'nalishlari, texnologik farqlari va tasniflanishi ko'rib chiqiladi.

3-mavzu. Qoramol, qo'y, echki va cho'chqaning biologik-fiziologik xususiyatlari

Asosiy chorva turlarining organizm tuzilishi, fiziologik jarayonlari, o'sish va rivojlanish xususiyatlari hamda mahsuldorlikka ta'siri o'rganiladi.

4-mavzu. Chorva mollarini saqlash tizimlari va ularning texnologik bahosi
Bog'lab va erkin saqlash tizimlari, ularning afzallik va kamchiliklari, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

5-mavzu. Chorvachilikda mikroiqlim va zoogigiyena asoslari
Chorva saqlanadigan binolarda harorat, namlik, havo almashinuvi, yoritish va sanitariya talablarining mahsuldorlikka ta'siri bayon etiladi.

6-mavzu. Chorva mollarini oziqlantirish texnologiyasi va ratsion tuzish
Oziqlantirish me'yorlari, to'liq qiymatli ratsion tuzish tamoyillari, ozuqa moddalarining mahsuldorlikka ta'siri tushuntiriladi.

7-mavzu. Yem-xashak bazasi va ozuqa ishlab chiqarish texnologiyasi
Yem-xashak turlari, ularni yetishtirish, saqlash va tayyorlash texnologiyalari hamda yem-xashak bazasining ahamiyati yoritiladi.

8-mavzu. Sut mahsulotlari yetishtirishning zootexnologik asoslari
Sut hosil bo'lish jarayoni, sog'ish texnologiyasi, sut mahsuldorligini oshirish omillari va sifat ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi.

9-mavzu. Go'sht yetishtirish texnologiyasi va semirtirish tizimlari
Go'sht mahsuldorligini oshirish usullari, semirtirish turlari, tirik vazn o'sishi va go'sht sifati masalalari bayon etiladi.

10-mavzu. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari texnologiyasi
Qo'y junining turlari, teri va ikkilamchi mahsulotlarni yetishtirish hamda dastlabki qayta ishlash texnologiyalari yoritiladi.

11-mavzu. Naslchilik, seleksiya va reproduksiya texnologiyasi
Naslchilik ishlarining mohiyati, seleksiya usullari, sun'iy urug'lantirish va reproduktiv ko'rsatkichlarni yaxshilash masalalari o'rganiladi.

12-mavzu. Chorvachilikda sog'lomlashtirish va veterinariya-profilaktika tadbirlari

Kasalliklarning oldini olish, sanitariya-gigiyena qoidalari, profilaktik emlash va sog'lomlashtirish tadbirlari bayon etiladi.

13-mavzu. Intensiv va innovatsion chorvachilik texnologiyalari
Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli texnologiyalar va intensiv chorvachilik usullarining afzalliklari ko'rib chiqiladi.

14-mavzu. Chorvachilik mahsulotlari sifatini baholash va standartlash
Mahsulot sifat ko'rsatkichlari, davlat standartlari, laboratoriya nazorati va sertifikatlash jarayonlari yoritiladi.

15-mavzu. Chorvachilikda ekologik barqarorlik va chiqindilarni boshqarish
Chorvachilikda atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik barqaror texnologiyalar masalalari ko'rib chiqiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan bo'yicha texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi
2. Chorva mollarining tashqi tuzilishi va konstitutsiyasini baholash
3. Qoramol, qo'y va echkilarning yoshini aniqlash usullari
4. Chorva mollarini guruhlash va texnologik joylashtirish
5. Saqlash binolarida mikroiklim ko'rsatkichlarini o'lchash
6. Chorva mollarini oziqlantirish normativlarini hisoblash
7. Yem-xashaklarning kimyoviy tarkibini aniqlash
8. Ozuqa aralashmalarini tayyorlash texnologiyasi
9. Chorva mollarining tirik vaznini aniqlash va hisobga olish
10. O'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish
11. Sut mahsuldorligini hisoblash va baholash
12. Go'sht yo'nalishida semirtirish texnologiyasi
13. Qo'ylarda jun mahsuldorligini baholash
14. Jun qirqish texnologiyasi va xavfsizlik qoidalari
15. Chorva mollarini bonitirovka qilish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia kurulumalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashqulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar ko'llanilishi maksadgamuvofik.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Chorva mollarining tashqi tuzilishi va konstitutsiyasini baholash
2. Qoramol, qo'y va echkilarning yoshini aniqlash usullari
3. Chorva mollarini guruhlash va texnologik joylashtirish
4. Saqlash binolarida mikroiklim ko'rsatkichlarini o'lchash
5. Zoogigiyena talablari asosida parvarish sharoitlarini baholash
6. Chorva mollarini oziqlantirish normativlarini hisoblash
7. Ratsion tuzish va zootexnik tahlil qilish
8. Yem-xashaklarning kimyoviy tarkibini aniqlash
9. Ozuqa aralashmalarini tayyorlash texnologiyasi
10. Suv ta'minoti va sug'orish tizimlarini baholash
11. Chorva mollarining tirik vaznini aniqlash va hisobga olish
12. O'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish
13. Sut sog'ish texnologiyasi va sog'ish uskunolari bilan ishlash
14. Sut mahsuldorligini hisoblash va baholash
15. Go'sht yo'nalishida semirtirish texnologiyasi
16. Go'sht mahsuldorligini aniqlash usullari
17. Qo'ylarda jun mahsuldorligini baholash
18. Jun qirqish texnologiyasi va xavfsizlik qoidalari
19. Teri va jun mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash
20. Naslchilik hujjatlari va seleksiya ko'rsatkichlari bilan ishlash

21. Chorva mollarini bonitirovka qilish
22. Kasallik belgilari va zootexnik nazorat
23. Veterinariya–profilaktika tadbirlarida ishtirok etish
24. Chorvachilik mahsulotlari sifatini baholash
25. Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash
26. Iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish
27. Ozuqa aralashmalarini tayyorlash texnologiyasi
28. Suv ta'minoti va sug'orish tizimlarini baholash
29. Chorva mollarining tirik vaznini aniqlash va hisobga olish
30. O'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish
31. Sut sog'ish texnologiyasi va sog'ish uskunalari bilan ishlash
32. Sut mahsuldorligini hisoblash va baholash
33. Go'sht yo'nalishida semirtirish texnologiyasi
34. Go'sht mahsuldorligini aniqlash usullari
35. Qo'ylarda jun mahsuldorligini baholash
36. Jun qirqish texnologiyasi va xavfsizlik qoidalari
37. Teri va jun mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash
38. Naslchilik hujjatlari va seleksiya ko'rsatkichlari bilan ishlash
39. Chorva mollarini bonitirovka qilish
40. Kasallik belgilari va zootexnik nazorat
41. Veterinariya–profilaktika tadbirlarida ishtirok etish
42. Chorvachilik mahsulotlari sifatini baholash
43. Chorvachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiya)

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalarining nazariy asoslari;

- Chorvachilik tarmoqlari (sut, go'sht, jun, teri va b.) ning texnologik jarayonlari;
- Chorva mollarining biologik va fiziologik xususiyatlari;
- Oziqlantirish, saqlash va parvarishlash tizimlari;
- Naslchilik va seleksiya ishlarining texnologik mohiyati;
- Chorvachilikda zoogigiyena va veterinariya-profilaktika tadbirlari;
- Zamonaviy intensiv va innovatsion chorvachilik texnologiyalari;
- Chorvachilik mahsulotlari sifat ko'rsatkichlari va standartlari;
- Ekologik barqaror chorvachilik va chiqindilarni boshqarish asoslari. **haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak; (bilim)**
- Chorva mollarini saqlash va parvarishlash texnologiyalarini;
- Ratsion tuzish, ozuqa me'yorlarini hisoblash va baholashni;
- Sut, go'sht va boshqa chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyalarini;

	<ul style="list-style-type: none"> • Chorva mollarining mahsuldorligini aniqlash va tahlil qilish usullarini; • Naslchilik hujjatlari bilan ishlash va seleksiya ko'rsatkichlarini qo'llashni; • Chorvachilik mahsulotlari sifatini baholash usullarini; • Veterinariya–sanitariya va zoogigiyena talablarini amalda qo'llashni; • Texnologik jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblashni; • Zamonaviy texnika va uskunalardan foydalanishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • Chorva mollarini zootexnik baholash va guruhlash; • Ozuqa ratsionlarini mustaqil tuzish va tahlil qilish; • Sut sog'ish, semirtirish va parvarishlash jarayonlarini tashkil etish; • Mahsuldorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va hujjatlashtirish; • Zoogigiyena va sanitariya qoidalariga rioya qilish; • Naslchilik va seleksiya ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish; • Chorvachilik mahsulotlari sifatini aniqlash; • Ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat xavfsizligini ta'minlash; • Jamoada ishlash va ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega kerak. (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • laboratoriya ishlari; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, i yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nosirov U.N. Qoramolchilik. /Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, — 2001, 384b. 2. U.R. Soatov. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish fani darsligi. "Zamon poligraf" QK nashriyoti. - - T.: O'zXIA. 2024. – 369b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev Fayzullaev S.S. SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b. 2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.

	<p>3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.</p> <p>4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda</p> <p>6. Maqsudov I. Chorvachilik asoslari: o'quv qo'llanma /. I.Maqsudov, J. Jo'raev, Sh.Q.Amirov. – Toshkent, 2012. – 361 bet.</p> <p>7. Ikromov T.H. Qishloq xo'jalik xayvonlarini urchitish va ko'paytirish: darslik / T.H.Ikromov.- T.: "Sharq", 2008.-176 b.</p> <p>8. Куликова Н.И. Основы животноводства: учебно-метод. пособие / Н.И.Куликова,О.Н.Ерёменко, А.О.Малахова. – Краснодар: КубГАУ, 2014. – 366 с.</p> <p>9. Артиков И.И. Разведение сельскохозяйственных животных: Учебное пособие / И.И.Артиков, Л.Н.Гамко, Г.Г. Нуриев.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www.Ziyo.net.</p> <p>2. http://www//uralrti/ru.</p> <p>3. http://www.nlr.ru/;</p> <p>4. http://el.tfi.uz/pdf/enmcoq22_uzk.pdf;</p> <p>5. http://el.tfi.uz/pdf/enmcoq22_uzl.pdf.</p> <p>6. www.zzr.ru</p> <p>7. www.agronews.ru</p> <p>8. www.apk-inform.com/animalstat</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025 yil "04" 07 dagi 13 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sular: Asrayev U.N.– TDAU "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası katta o'kituvchi; R.A.Troyanovskaya – TDAU "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: S.Sh.Isamuxamedov– TDAU "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası dotsenti, biologiya fanlari nomzodi; Ashirov B.M. – O'zbekiston qishloq xo'jalik vazirlikda etakchi xodim, k.x.f.d.</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi 1 mavzu nomi	Havolalar:
1.	Penn State (AQSh)	89	64	Qishloq xo'jalik hayvonlarining sut mahsulotlarini baholash usullari: sutdorlik koeffitsienti, bazis yog'dorlik darajasini aniqlash, laktatsiyaning doimiylik koeffitsienti, yog'dorligi, sutning yog' chiqimi, o'rtacha yog' miqdori va zachyot massasini aniqlash.	7-mavzu. Sut mahsulotlari yetishtirishning zootexnologik asoslari	https://animalscience.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbook
2	University of Hawai'i	546	251	Qorako'lichilikda tanlash asosiy xususiyatlari. (Main features of selection in Karakul breeding)	10-mavzu. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari texnologiyasi	https://jahnresearchgroup.webhosting.cals.wisc.edu/wp-content/uploads/sites/223/2019/01/Animal-Science-Syllabus.pdf
3.	University GUELPH (Kanada)	11	150	Zotlarni yaxshilash, yangi zotlar yaratish dasturlari va yullari. Podalarning genetik potensialini oshirish. Naslchilik ishlarini tashkil qilish va boshqarish.	11-mavzu. Naslchilik, seleksiya va reproduksiya texnologiyasi	MBG 4030 https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-e-calendar/programs/majors/minors/animal-science-ansc/#requirements